

**MING ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISHGA OID MASALALARNI  
O'RGATISH METODIKASI**

*Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi*

*Samarqand Davlat Universiteti talabasi*

*E-mail: [qarshiyevamuborak43@gmail.com](mailto:qarshiyevamuborak43@gmail.com)*

*Tel: +998996839732*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ming ichida qo'shish va ayirish masalalar orqali o'rgatilgan.. Masalalar yechilish yo'lida xonadan o'tib qo'shish, xonadan o'tmay qo'shish, xonadan o'tib ayirish, xonadan o'tmay ayirish kabi usullarni tushunib yetadi.

**Kalit so'zlar:** Masala, ming ichida qo'shish, ming ichida ayirish.

**Abstract:** In this article, addition and subtraction in thousands is taught through problems.. To solve problems, add across the room, add without crossing the room, subtract across the room, subtract without crossing the room understands such methods.

**Key words:** Problem, addition in thousands, subtraction in thousands

Boshlang'ich sinflarda asosan ming ichida qo'shish va ayirishga oid masalalar 3-sinf darsliklarida uchraydi. Ming ichida sanoqni o'rganib tugatilgandan keyingina bunday masalalarni uchratishimiz mumkin

1-Masala:

Ekin ekish uchun 300 kg bug'doy va undan 200kg ortiq makkajo'xori keldirildi. Jami qancha ekin ekilishi kerak.

1) Masala qanday tipdagi ?

- Murakkab

2)Masala nima haqida?

-Ekilayotgan ekinlar miqdori

3) Masalada nima ma'lum?

- Bug'doy massasi ma'lum

4) Masalada nima noma'lum?

- Makkajo'xori massasi va jami ekinlar miqdori

5) Masalada nimani topish kerak?

- Jami ekinlar miqdorini.

Qisqa sharti:

Bug'doy- 300kg

Makkajo'xori -? 200kg ortiq

Jami ekinlar -?kg

1. Makkajo'xori massasini topish uchun bug'doy massasiga, Makkajo'xori massasi qancha ortiq bo'lsa shu miqdorni qo'shamiz.

2. Jami ekinlar miqdorini topish uchun bug'doy massasiga Makkajo'xori massasini qo'shamiz.

Yechish:

1)  $300+200=500$

2)  $500+300=800$

Javob: Jami ekinlar miqdori 800 kg.

Yuqorida keltirilgan masala ming ichida qo'shishga oid masala hisoblanadi.

Bu masalada miqdorlar asosan oxirgi raqami nol bilan tugagan sonlar bilan bberilgan, buning sababi bu sonlarni qo'shish qulay bo'lgani uchundir. Bu sonlarni o'quvchilar o'nliklarga aylantirib bemalol qo'sha oladi. Ming ichida qo'shishni o'rgatishning birinchi bosqichida ham shu tipdagi misollar berilgan

2-Masala:

Fermada 520 ta ot bor edi. Otlardan 110 ta kam sigirlar keltirildi , fermadagi qo'ylar esa sigirlarda 55 ta kam. Fermada nechta qo'ylar bor.

1) Masala qanday tipdagi masala?

-murakkab

2) Masala nima haqida?

-Fermadagi jonvorlar haqida

3) Masalada nima ma'lum?

- Fermadagi otlar soni

4) Masalada nima noma'lum?

- Fermadagi sigirlar va qo'ylar soni .

5) Masalada nimani topish kerak?

- Fermadagi qo'ylar sonini

Qisqa sharti:

Otlar -520ta

Sigirlar-? 110ta kam otlardan

Qo'ylar-? 55 ta kam sigirlardan

1.Fermadagi sigirlar sonini topish uchun fermadagi otlar sonidan, sigirlar qancha kam bo'lsa shuni ayiramiz.

2. Fermadagi qo'ylar sonini topish uchun sigirlar sonidan, qo'ylar soni qancha kam bo'lsa shuni ayiramiz.

Yechish:

1)  $520-110=410$

2)  $410-55=355$

Javob: Qo'ylar soni 355 ta

2- Masalamizda ming ichida sonlarni ayirishga oid masala hisoblanadi. Bu masalada ayirishga oid xonadan o'tmay ayirish va xonadan o'tib ayirishga oid misollar berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumayev M.E , Tadjiyeva Z «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» Toshkent:Fan va texnologiya, 2005, 312 bet
2. X.Nazarov, G.Eshqobilova . Matematika o'qitish metodikasi.SamDu .2022y.
3. Matematika umumiy o'rta ta'lim maktablari 3-sinflari uchun darslik.